Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv va raqamli jamiyat sharoitida umummadaniy kompetentlik tushunchasining mazmunan yangilanishi hamda transformatsiyalanish jarayonlari tahlil qilinadi. Umummadaniy kompetentlik an'anaviy madaniy bilimlar, qadriyatlar va ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari bilan bir qatorda raqamli madaniyat, axborot etikasi, media savodxonlik, madaniyatlararo muloqot va virtual kommunikatsiya madaniyatini o'zida mujassam etgan integrativ sifat sifatida talqin etiladi.

Tadqiqotda kompetensiyaviy, madaniyatshunoslik, aksiologik hamda raqamli-pedagogik yondashuvlar asosida mazkur kompetentlikning zamonaviy mazmuniy komponentlari yoritib berilgan. Natijada umummadaniy kompetentlikni pedagogik ta'lim jarayonida shaxsning madaniy, kommunikativ, axborot, raqamli-etik va refleksiv tayyorgarligini ifodalovchi muhim kompetentlik sifatida rivojlantirish zarurligi ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: umummadaniy kompetentlik, globallashuv, raqamli jamiyat, raqamli madaniyat, media savodxonlik, axborot etikasi, madaniyatlararo muloqot, virtual kommunikatsiya, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik ta'lim.

Abstract: This article examines the processes of conceptual renewal and transformation of general cultural competence in the context of globalization and the digital society. General cultural competence is interpreted as an integrative personal quality that combines traditional cultural knowledge, values, and norms of social behavior with digital culture, information ethics, media literacy, intercultural communication, and the culture of virtual interaction.

The study reveals the contemporary content components of this competence through competency-based, cultural, axiological, and digital-pedagogical approaches. The findings substantiate the necessity of developing general cultural competence in modern pedagogical education as a key competence reflecting an individual's cultural, communicative, informational, digital-ethical, and reflective preparedness.

Key words: general cultural competence, globalization, digital society, digital culture, media literacy, information ethics, intercultural communication, virtual communication, competency-based approach, pedagogical education.

Аннотация: В данной статье анализируются процессы содержательного обновления и трансформации понятия общекультурной компетентности в условиях глобализации и цифрового общества. Общекультурная компетентность рассматривается как интегративное качество личности, объединяющее традиционные культурные знания, ценности и нормы социального поведения с цифровой культурой, информационной этикой, медиаграмотностью, межкультурной коммуникацией и культурой виртуального взаимодействия.

На основе компетентностного, культурологического, аксиологического и цифрово-педагогического подходов раскрываются современные содержательные компоненты данной компетентности. В результате обосновывается необходимость развития общекультурной компетентности в педагогическом образовании как важной характеристики, отражающей культурную, коммуникативную, информационную, цифрово-этическую и рефлексивную готовность личности.

Ключевые слова: общекультурная компетентность, глобализация, цифровое общество, цифровая культура, медиаграмотность, информационная этика, межкультурная коммуникация, виртуальная коммуникация, компетентностный подход, педагогическое образование.

KIRISH

XXI asrda jamiyat taraqqiyoti globallashuv, raqamlashtirish, axborot oqimlarining jadallashuvi hamda madaniyatlararo aloqalarning kengayishi bilan tavsiflanmoqda. Bugungi kunda inson faoliyati nafaqat real ijtimoiy muhitda, balki raqamli makon, virtual kommunikatsiya platformalari, ijtimoiy tarmoqlar va global axborot



maydonida ham amalga oshirilmoqda. Bunday sharoitda shaxsning madaniy tayyorgarligi, ijtimoiy mas'uliyati, axborotdan ongli foydalanish ko'nikmalari, turli madaniy qarashlarga nisbatan tolerant munosabati hamda raqamli muhitda madaniyatli muloqot qila olish qobiliyati alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois umummadaniy kompetentlik tushunchasi zamonaviy ta'lim nazariyasi va amaliyotida qayta talqin qilinishi zarur bo'lgan muhim ilmiy-pedagogik kategoriyalardan biriga aylanmoqda.

An'anaviy yondashuvlarda umummadaniy kompetentlik, asosan, shaxsning umumiy madaniy saviyasi, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni anglashi, ijtimoiy xulq-atvor me'yorlariga rioya qilishi, san'at, tarix, til, milliy va umuminsoniy qadriyatlardan xabardorligi bilan izohlangan. Biroq globallashuv va raqamli jamiyat sharoitida ushbu tushuncha yanada kengroq mazmun kasb etmoqda. Endilikda umummadaniy kompetentlik faqat madaniy bilimlarga ega bo'lishni emas, balki turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish, global axborot oqimlarini tanqidiy baholash, raqamli muhitda axloqiy me'yorlarga rioya etish, virtual kommunikatsiyada madaniyatli munosabat bildirish hamda o'z madaniy pozitsiyasini ongli ravishda ifoda eta olishni ham o'z ichiga oladi.

Raqamli jamiyatning shakllanishi umummadaniy kompetentlik mazmuniga yangi komponentlarni olib kirmoqda. Xususan, media savodxonlik, axborot xavfsizligi madaniyati, raqamli etikaga rioya qilish, onlayn muloqotda mas'uliyatli xatti-harakatlarni namoyon etish, turli manbalardan olinayotgan axborotni tahlil qilish va baholash qobiliyati shaxsning umumiy madaniy tayyorgarligining ajralmas qismiga aylanmoqda. Chunki raqamli makonda shaxs nafaqat axborot iste'molchisi, balki axborot yaratuvchisi, tarqatuvchisi va madaniy muloqot subyekti sifatida ham namoyon bo'ladi. Bu esa umummadaniy kompetentlikni raqamli madaniyat bilan uzviy bog'liq holda qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Globalashuv va raqamli transformatsiya sharoitida umummadaniy kompetentlik shaxsning umumiy madaniy saviyasi bilan cheklanmay, uning raqamli madaniyati, axborotga tanqidiy munosabati, madaniyatlara muloqotga tayyorligi, virtual muhitda axloqiy va mas'uliyatli xatti-harakatlarni amalga oshira olishi hamda o'z faoliyatini refleksiv baholash qobiliyatini ham qamrab oluvchi murakkab, ko'p komponentli kompetentlik sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur holat ushbu tushunchani zamonaviy pedagogik tadqiqotlar doirasida chuqurroq o'rganish va uning yangi nazariy modelini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Umummadaniy kompetentlik tushunchasi pedagogika, madaniyatshunoslik, kommunikatsiya nazariyasi va raqamli ta'lim tadqiqotlarida turli yondashuvlar asosida talqin qilinadi. An'anaviy pedagogik yondashuvlarda mazkur tushuncha shaxsning umumiy madaniy saviyasi, ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini egallashi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglashi hamda madaniy muhitda o'zini munosib tutish qobiliyati bilan bog'liq holda izohlanadi.

Kompetensiyaviy yondashuv vakillari kompetentlikni shaxsning bilimlari, ko'nikmalari, qadriyatlari va amaliy faoliyat tajribasining uyg'unlashgan natijasi sifatida talqin qiladilar. Mazkur yondashuv umummadaniy kompetentlikni faqat nazariy bilimlar bilan emas, balki real ijtimoiy va kasbiy vaziyatlarda namoyon bo'ladigan madaniy xulq-atvor, kommunikativ moslashuvchanlik hamda refleksiv fikrlash bilan bog'liq holda o'rganish imkonini beradi. Shu jihatdan umummadaniy kompetentlik shaxsning jamiyatda faol, mas'uliyatli va madaniyatli ishtirok etishini ta'minlovchi muhim sifat sifatida qaraladi.

Madaniyatlararo kompetentlik bo'yicha tadqiqotlarda M. Byram va D. K. Deardorff yondashuvlari alohida ahamiyat kasb etadi. M. Byram madaniyatlararo kommunikativ kompetentlikni til, madaniyat, munosabat va muloqot strategiyalarining o'zaro bog'liq tizimi sifatida talqin qiladi. D. K. Deardorff esa interkultural kompetentlikni baholashda bilimlar, munosabatlar, ko'nikmalar va ichki natijalar uyg'unligiga e'tibor qaratadi. Ushbu yondashuvlar globallashuv sharoitida umummadaniy kompetentlikni madaniyatlararo muloqotga tayyorlik, o'zga madaniyatlarni anglash, tolerantlik va kommunikativ moslashuvchanlik bilan bog'liq holda qayta talqin qilish zarurligini ko'rsatadi.

Raqamli jamiyat sharoitida umummadaniy kompetentlik mazmuniga yana bir muhim yo'nalish - raqamli madaniyat kirib kelmoqda. Yevropa Komissiyasining DigComp 2.2 raqamli kompetentlik doirasi raqamli texnologiyalardan ishonchli, tanqidiy va xavfsiz foydalanish uchun zarur bo'lgan bilimlar, ko'nikmalar va munosabatlarni tizimlashtiradi. Bu esa umummadaniy kompetentlikni zamonaviy sharoitda media savodxonlik, axborot xavfsizligi, onlayn muloqot etikasi, raqamli iz qoldirish madaniyati va virtual muhitdagi ijtimoiy mas'uliyat bilan bog'liq holda tahlil qilish zarurligini asoslaydi.

Umummadaniy kompetentlik tushunchasi ilgari madaniy bilimlar, qadriyatlar va ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari bilan bog'liq holda izohlangan bo'lsa, hozirgi davrda uning mazmuni sezilarli darajada kengayib bormoqda. Globalashuv ushbu tushunchaga madaniyatlararo muloqot, tolerantlik, global fuqarolik va madaniy xilma-xillikni hurmat qilish kabi jihatlarni olib kirgan bo'lsa, raqamli jamiyat media savodxonlik, axborot etikasi, raqamli madaniyat hamda virtual kommunikatsiya madaniyatini uning ajralmas komponentlariga aylantirmoqda.

1-jadval: Globallashuv va raqamli jamiyat sharoitida umummadaniy kompetentlik mazmunining transformatsiyasi

Yondashuv / manba yo'nalishi	An'anaviy talqin	Zamonaviy transformatsiya	Umummadaniy kompetentlikka ta'siri
Kompetensiyaviy yondashuv	Bilim, ko'nikma va qadriyatlarning shaxs faoliyatida namoyon bo'lishi	Kompetentlikni real vaziyatlarda qo'llash, refleksiv baholash va moslashuvchan harakat qilish bilan bog'lash	Umummadaniy kompetentlik nazariy bilimdan amaliy-madaniy xulq va refleksiv faoliyatga o'tadi
Madaniyatshunoslik yondashuvi	Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni bilish, madaniy merosni anglash	Madaniy xilma-xillikni qabul qilish, madaniy identiklikni saqlash va global qadriyatlarni anglash	Milliy, umuminsoniy va global qadriyatlar uyg'unligi shakllanadi
Interkultural yondashuv	O'zga madaniyat vakillari bilan muloqot qilishga tayyorlik	Madaniyatlararo muloqot, tolerantlik, boshqa dunyoqarashlarni tushunish va hurmat qilish	Kompetentlik madaniyatlararo kommunikativ tayyorgarlik bilan boyiydi
Global fuqarolik yondashuvi	Jamiyatda ijtimoiy mas'uliyatli ishtirok etish	Global muammolarni anglash, barqaror rivojlanish, tinchlik va fuqarolik mas'uliyatiga tayyorlik	Shaxsning global ijtimoiy mas'uliyati va fuqarolik pozitsiyasi kuchayadi
Raqamli-pedagogik yondashuv	Axborotdan foydalanish va oddiy kommunikatsiya ko'nikmalari	Media savodxonlik, axborot etikasi, raqamli xavfsizlik, virtual muloqot madaniyati	Umummadaniy kompetentlik raqamli madaniyat va onlayn xulq etikasi bilan integratsiyalashadi
Aksiologik yondashuv	Madaniy, axloqiy va ma'naviy qadriyatlarga hurmat	Qadriyatlarni real va virtual muhitda ongli tanlash, baholash va himoya qilish	Shaxsning qadriyatli pozitsiyasi raqamli va global makonda namoyon bo'ladi
Refleksiv yondashuv	O'z xulq-atvori va faoliyatini tahlil qilish	Raqamli iz, onlayn muloqot, axborot iste'moli va madaniy pozitsiyani tanqidiy baholash	Kompetentlik o'zini anglash, o'zini nazorat qilish va o'zini rivojlantirish bilan boyiydi

Jadvaldan ko'rinadiki, globallashuv va raqamli jamiyat sharoitida umummadaniy kompetentlik ko'p komponentli, dinamik va integrativ xususiyat kasb etmoqda. U endilikda faqat madaniy bilimlarni egallash yoki ijtimoiy xulq-atvor me'yorlariga rioya qilish bilan cheklanmaydi. Aksincha, shaxsning real va virtual muhitda madaniyatli faoliyat yuritishi, axborotni tanqidiy baholashi, turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqotga kirishishi, milliy va global qadriyatlar o'rtasida muvozanatni saqlashi hamda o'z faoliyatini refleksiv tahlil qila olishini ham qamrab oladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, kontent-tahlil, umumlashtirish, tizimlashtirish va konseptual modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Nazariy tahlil yordamida umummadaniy kompetentlik, global kompetentlik, madaniyatlararo kommunikativ kompetentlik, raqamli kompetentlik va media savodxonlikka oid ilmiy-pedagogik manbalar o'rganildi. Qiyosiy tahlil orqali umummadaniy kompetentlikning an'anaviy va zamonaviy talqinlari o'zaro solishtirildi. Kontent-tahlil asosida xalqaro hujjatlar hamda ilmiy manbalarda mazkur kompetentlik bilan bog'liq asosiy tushunchalar, mezonlar va tarkibiy komponentlar ajratib olindi.

Tadqiqot quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi.

Birinchi bosqichda umummadaniy kompetentlikning an'anaviy ilmiy talqinlari tahlil qilindi.

Ikkinchi bosqichda globallashuv va raqamli jamiyat sharoitida mazkur tushunchaga ta'sir etuvchi yangi omillar aniqlashtirildi.

Uchinchi bosqichda xalqaro konsepsiyalar va ilmiy manbalar asosida umummadaniy kompetentlikning zamonaviy tarkibiy komponentlari tizimlashtirildi.

To'rtinchi bosqichda olingan nazariy natijalar umumlashtirilib, umummadaniy kompetentlikning transformatsiyalashgan mazmuni bo'yicha konseptual xulosalar ishlab chiqildi.

Manbalarni tanlashda ularning mavzuga bevosita aloqadorligi, ilmiy-metodologik ahamiyati, pedagogik ta'lim kontekstida qo'llash imkoniyati hamda globallashuv, raqamli kompetentlik, global fuqarolik va madaniyatlararo muloqot masalalarini yoritish darajasi hisobga olindi. Tahlil jarayonida ilmiy maqolalar, xalqaro tashkilotlar materiallari, kompetensiyaviy yondashuvga oid nazariy manbalar hamda raqamli kompetentlik bo'yicha konseptual hujjatlar o'rganildi.



Tadqiqot natijalarini talqin qilishda umummadaniy kompetentlikning transformatsiyasi uchta asosiy mezon asosida baholandi: birinchidan, tushunchaning mazmuniy kengayishi; ikkinchidan, uning tarkibiga yangi komponentlarning kirib kelishi; uchinchidan, real va virtual ijtimoiy-madaniy muhitda namoyon bo'lish shakllarining o'zgarishi. Mazkur yondashuv tadqiqotda umummadaniy kompetentlikni statik tushuncha sifatida emas, balki globallashuv va raqamli jamiyat ta'sirida doimiy ravishda yangilanib boruvchi dinamik pedagogik kategoriya sifatida tahlil qilish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli jamiyat sharoitida umummadaniy kompetentlik tushunchasi an'anaviy mazmundan kengroq, murakkabroq va dinamik pedagogik kategoriya sifatida namoyon bo'lmoqda. Ilgari ushbu kompetentlik, asosan, shaxsning umumiy madaniy saviyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglashi, ijtimoiy xulq-atvor me'yorlariga rioya qilishi hamda madaniy muhitda o'zini tutish qobiliyati bilan izohlangan bo'lsa, bugungi sharoitda uning tarkibiga raqamli madaniyat, media savodxonlik, axborot etikasi, virtual kommunikatsiya madaniyati va madaniyatlararo muloqotga tayyorlik kabi yangi komponentlar ham kirib kelmoqda.

Tadqiqot natijalari umummadaniy kompetentlikning transformatsiyasi uchta asosiy yo'nalishda kecha-yotganligini ko'rsatdi. Birinchidan, uning mazmuni madaniy bilimlar doirasidan chiqib, real va virtual muhitda madaniyatli faoliyat yuritish ko'nikmalarini ham qamrab olmoqda. Ikkinchidan, globallashuv ta'siri ostida ushbu kompetentlik madaniyatlararo muloqot, tolerantlik va global fuqarolik mas'uliyati kabi jihatlar bilan boyib bormoqda. Uchinchidan, raqamli jamiyat sharoitida umummadaniy kompetentlik axborotni tanqidiy baholash, raqamli etikaga rioya qilish hamda onlayn muloqotda madaniy me'yornlarni saqlash kabi sifatlar bilan uzviy bog'lanmoqda.

2-jadval: **Umummadaniy kompetentlik transformatsiyasining asosiy yo'nalishlari**

Transformatsiya yo'nalishi	An'anaviy mazmun	Zamonaviy mazmun
Madaniy yo'nalish	Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni bilish	Madaniy xilma-xillikni anglash va hurmat qilish
Kommunikativ yo'nalish	Ijtimoiy muloqot madaniyati	Madaniyatlararo va virtual muloqot madaniyati
Axborot yo'nalishi	Axborotdan foydalanish	Axborotni tanqidiy tahlil qilish, media savodxonlik
Raqamli-etik yo'nalish	Xulq-atvor me'yorlariga rioya qilish	Onlayn muhitda etik, mas'uliyatli va xavfsiz harakat qilish
Refleksiv yo'nalish	O'z xatti-harakatini baholash	Real va raqamli faoliyatini tanqidiy tahlil qilish

Jadvaldan ko'rinadiki, umummadaniy kompetentlik endilikda faqat shaxsning madaniy bilimlari yoki tarbiyaviy sifatleri bilan cheklanmaydi. U shaxsning global axborot makonida qanday faoliyat yuritishi, turli madaniyat vakillari bilan qanday muloqot qilishi, raqamli platformalarda qanday axloqiy pozitsiyani egallashi hamda o'z faoliyatini qay darajada refleksiv baholay olishi bilan ham belgilanadi. Bu esa mazkur tushunchani zamonaviy pedagogik ta'limda yangicha talqin qilish zarurligini ko'rsatadi.

Bo'lajak pedagoglar uchun umummadaniy kompetentlik alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki pedagog nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki o'quvchilarda madaniy dunyoqarashni, axborotdan foydalanish madaniyatini, raqamli muhitda mas'uliyatli xulq-atvorni hamda madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini shakllantiruvchi shaxs hisoblanadi. Shu sababli pedagogik ta'lim jarayonida umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishda an'anaviy madaniy-ma'naviy tarbiya bilan bir qatorda media savodxonlik, raqamli etika, axborot xavfsizligi va global fuqarolik madaniyatiga ham alohida e'tibor qaratish zarur.

Tadqiqot natijalari globallashuv va raqamli jamiyat sharoitida umummadaniy kompetentlikning mazmuni kengayib, u madaniy, interkultural, axborot-tahliliy, raqamli-etik va refleksiv komponentlar uyg'unligidan iborat integrativ kompetentlikka aylanayotganini ko'rsatadi. Mazkur holat ushbu tushunchani zamonaviy ta'lim mazmuniga mos ravishda qayta talqin qilish hamda pedagogik ta'lim dasturlariga integratsiyalash zarurligini asoslaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari umummadaniy kompetentlik tushunchasining mazmunan kengayib, zamonaviy ta'limning muhim integrativ kategoriyalaridan biriga aylanayotganligini ko'rsatdi. Aniqlanishicha, mazkur kompetentlik endilikda faqat madaniy bilimlar, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini egallash bilan cheklanmaydi. U shaxsning madaniyatlararo muloqotga tayyorligi, axborotni tanqidiy baholash qobiliyati,

raqamli muhitda mas'uliyatli va etik xatti-harakatlarni amalga oshirishi, media savodxonlikka egaligi hamda real va virtual ijtimoiy makonda o'z madaniy pozitsiyasini ongli ravishda namoyon eta olishini ham qamrab oladi.

Tahlillar asosida umummadaniy kompetentlikning transformatsiyasi uchta asosiy yo'nalishda namoyon bo'lishi aniqlandi. Birinchidan, uning mazmuni milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglashdan madaniy xilma-xillikni hurmat qilish hamda global fuqarolik mas'uliyatini his etish darajasigacha kengaymoqda. Ikkinchidan, an'anaviy kommunikativ madaniyat madaniyatlararo va virtual muloqot madaniyati bilan boyib bormoqda. Uchinchidan, raqamli jamiyat ta'siri ostida media savodxonlik, axborot etikasi, raqamli xavfsizlik va onlayn xulq-atvor me'yorlari ushbu kompetentlikning ajralmas tarkibiy qismlariga aylanmoqda.

Shu munosabat bilan pedagogik ta'lim jarayonida umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishda an'anaviy madaniy-ma'naviy tarbiya bilan bir qatorda raqamli madaniyat, media savodxonlik, axborot xavfsizligi, virtual kommunikatsiya etikasi va global fuqarolik madaniyatini shakllantirishga ham alohida e'tibor qaratish zarur.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Pedagogik ta'lim dasturlariga umummadaniy kompetentlikning raqamli va interkultural komponentlarini integratsiyalash.
2. Bo'lajak pedagoqlarda media savodxonlik, axborot etikasi va raqamli xavfsizlik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus modullarni joriy etish.
3. Umummadaniy kompetentlikni baholashning zamonaviy mezonlari va diagnostik indikatorlarini ishlab chiqish.
4. Mazkur kompetentlikning virtual muhitdagi namoyon bo'lish ko'rsatkichlarini aniqlashga qaratilgan amaliy tadqiqotlarni kengaytirish.
5. Global fuqarolik va madaniyatlararo muloqot madaniyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish.

Kelgusida umummadaniy kompetentlikning raqamli transformatsiya sharoitidagi rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash, uning tarkibiy tuzilmasini empirik jihatdan asoslash hamda pedagogik ta'lim samaradorligiga ta'sirini baholash bo'yicha ilmiy izlanishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Байденко В.И. Компетентный подход в высшем образовании: методологические и методические вопросы. - М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2005. - 114 с.
2. Зимняя И.А. Ключевые компетенции - новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. - 2003. - №5. - С. 34-42.
3. Компетенции в образовании: опыт проектирования / под ред. А.В. Хуторского. - М.: ИНЭК, 2007. - 327 с.
4. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. - Clevedon: Multilingual Matters, 1997. - 124 p.
5. Deardorff D.K. Identification and Assessment of Intercultural Competence as a Student Outcome of Internationalization // Journal of Studies in International Education. - 2006. - Vol. 10, No. 3. - P. 241-266.
6. Wilson C., Grizzle A., Tuazon R., Akyempong K., Cheung C.K. Media and Information Literacy Curriculum for Teachers. - Paris: UNESCO, 2011. - 192 p.
7. Vuorikari R., Kluzer S., Punie Y. DigComp 2.2: The Digital Competence Framework for Citizens. With New Examples of Knowledge, Skills and Attitudes. - Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2022.
8. Council of Europe. Digital Citizenship Education Handbook. - Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2019.
9. Castells M. The Rise of the Network Society. 2nd ed. - Oxford: Wiley-Blackwell, 2010.
10. Robertson R. Globalization: Social Theory and Global Culture. - London: SAGE Publications, 1992.
11. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. - New York: Teachers College Press, 2020.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.